

“QADIMGI DAVR KONTEKSTIDA AYOLLARGA BO'LGAN MUNOSABAT
VA ULARNING HUQUQLARI”

Hikmatova Sevinch Hayot qizi

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti

Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi talabasi

xikmatovas17@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi davr davlatlarida ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularga bo'lgan munosabat hamda gender tengligi masalalari tahlil qilingan. Qadimgi Yunoniston, Rim, Hindiston, Bobil, Misr va Fors jamiyatlarida ayollarga berilgan huquq va erkinliklar o'zaro qiyosiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, ayrim sivilizatsiyalarda ayollarning davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki misollar orqali ko'rsatib berilgan. Maqolada qadimgi davrda ayollarga bo'lgan munosabatning o'zgarib borishi hamda gender tengligining ilk kurtaklari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *gender tengligi, siyosiy va ijtimoiy huquqlar, davlat boshqaruvidagi ayollar, matriarxal jamiyat an'analari, Zardushtiylik va “Avesto”, ayollarning jamiyatdagi mavqei*

Kirish

Bilamizki, bugungi kunda har bir davlat siyosatida gender tengligi ya'ni jamiyatda ayol va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash masalasi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada turli davlatlar o'ziga xos siyosat yuritayotgani kabi jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabat hamda ularning huquq va erkinliklari qadimgi davr bilan hozirgi davr o'rtasida sezilarli darajada farq qiladi. Bugungi kunda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotgan bo'lsa, tarixning ayrim bosqichlarida ularning huquqlari ancha cheklangan edi. Butun insoniyat tarixining dastlabki davri davomida ayollar o'z hayotlarini erkaklar va ular yashagan jamiyat tomonidan belgilab berilgan gender rollari asosida olib borishga majbur bo'lganlar. Qadimgi davrlardan to bugungi kungacha tashkil topgan ko'p sonli davlatlarda va sivilizatsiyalarda ayollar ko'pincha erkaklardan keyingi ikkinchi darajali mavqega tushirib qo'yilgan, faqatgina nasl qoldirish uchun mas'ul shaxs sifatida qaralgan yoki jamiyat boshiga tushgan kulfatlarning sababchisi sifatida baholanib kelingan. Biroq o'z davrining tuzumiga qaramay, shunday ayollar ham bo'lganki, ular nafaqat o'z mavjudligini namoyon eta olgan, balki davlatlarni boshqarish darajasigacha yuksalganlar.

Qadimgi Yunonistonda ayollar

Qadimgi Yunonistonda ayollar erkaklardan tug'ilgan onidan boshlab farqli munosabatga uchrashgan. O'sha davrda jamiyat harbiy tuzumga asoslanganligi sababli o'g'il bolalar jangchi sifatida tarbiyalangan bo'lsa, qizlar onalikka tayyorlangan va ayrim hollarda ular onalikdan ham mahrum etilgan. Ayollarning asosiy vazifasi o'z turmush o'rtoqlaridan farzandlarni dunyoga keltirish, ularni tarbiyalash va uy-ro'zg'or ishlarini risoladagidek

bajarishdan iborat bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda odatda qizlar 13-15 yoshda turmushga tayyor deb hisoblangan. Jamiyatda ayollar doimo erkaklar himoyasida bo'lishi kerak degan qarash mavjud bo'lib, bu amalda ayollarning siyosiy va ijtimoiy huquqlardan mahrum bo'lishiga olib kelgan. Bundan tashqari ayollar hech qanday siyosiy huquq va vakolatlarga ega bo'lmagan bo'lib, meros ham asosan o'g'il farzandga qoldirilgan. Ayollar erlaridan o'z xohishiga ko'ra ajrashsa olmagan, jamiyatda yakka nikoh asosiy tamoyil bo'lib, ayolning xiyonati also kechirilmagan. Erkaklar davlat boshqaruvi sohasida faoliyat yuritgan bir davrda ayollar uchun eng yuksak maqom kohina hisoblangan.

Qadimgi Rimda ayollar

Qadimgi Rimda gender rollari boshqa mamlakatlar kabi turlicha bo'lgan. Qiz farzand alohida tartib va intizom asosida tarbiyalangan bo'lib, ular asosan oila qurish va farzandlar dunyoga keltirishni fazilat deb bilishgan. Ayniqsa, o'g'il farzand tug'ilishiga alohida e'tibor berilgan. Ayrim hollarda oilada qiz farzand xohlanmasa nogiron va nikohsiz tug'ilganlar uchun mahsus ajratilgan joylarga tashlab ketilgan. Bundan tashqari, ba'zida to'ng'ich qiz farzand otasi vafot etganida oila boshlig'i bo'lishi ko'zda tutilgan. Bu esa Rim jamiyatida jiddiy noroziliklarni keltirib chiqargan va erkaklar buni oldini olish maqsadida asosan erkin ayollarga emas, balki qul ayollarni sotib olishni afzal ko'rishgan. Bu orqali ular jamiyatdagi mavqeini saqlab qolish va hokimiyat o'z qo'lida ekanini ko'rsatishga olgan. Vaqt o'tishi bilan bu hol jamiyatda nikohlar sonining kamayishiga olib kelgan va Rim hukumati jamiyat manfaatlari uchun farzand dunyoga keltirishni rag'batlantiruvchi qonunlar ishlab chiqib, nikoh hamma uchun majburiy etib belgilangan. Ayniqsa, Qonuniy nikohdan uch nafar farzand dunyoga keltirgan ayollarga ko'proq erkinliklar taqdim etilgan. [1].

Qadimgi Hindistonda ayollar

Hind huquqida nikoh ikki turga bo'lingan: maqbul va sharafli hamda maqbul yoki sharafli hisoblanmaydigan nikohlar. Nikohning bunday turga bo'linishiga nikohga qizning otasining roziligi va nikoh xarajatlarining qoplanishi asos qilib olingan. Qadimgi Hindistonda qizni nikohga berish mas'uliyati ota zimmasida bo'lgan. Hindistonda ham ayollar xuddi Qadimgi Yunoniston kabi asosan erkaklarning qaramog'ida bo'lishi nazarda tutilgan: avval otasi, keyin eri, undan so'ng esa o'g'illari nazorati ostida bo'lgan. Ajralishlar soni juda kam bo'lgan bo'lib, er ayoliga xiyonat qilgan holdagina ajrashish huquqiga ega bo'lgan, biroq, ayol hech qanday sabab bilan eridan ajralish huquqiga ega bo'lmagan. [2].

Qadimgi Bobilda ayollar

Bobilda asosan erkak kishi oilada hukumronlik ya'ni rahbarlik qilgan. Erkaklar oilaning umumiy xo'jaligini boshqarib, tadbirkorlik va oldi-sotdi munosabatlarida oila nomidan vakillik qilgan. Erkaklar xotini va bolalari ni tasarruf etish huquqiga ega bo'lib, xotinning faqatgina o'zining "nikohdan oldingi" mol-mulkiga yoki sovg'a sifatida olingan mol-mulkiga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. Erining mol-mulkini "isrof qiladigan" va "sharmanda qiladigan" xotinni uydan haydab chiqarishga ruxsat berilgan. Erining ixtiyorida bunday xotinni uyida qul qilib saqlab qolib, ikkinchi marta uylanish mumkin hisoblangan. [3].

Qadimgi Misrda ayollar

Qadimgi Misrda boshqa jamiyatlardam farqli ravishda ayollar alohida hurmat va e'tibor yuqori darajada bo'lgan. Ayollar deyarli erkaklar bilan teng huquqli bo'lishga, hatto ayrim sohalarda ular erkaklardan ustun mavqega ega bo'lishgan. Bundan tashqari Misrda malikaga nisbatan Xudoning onasi, rafiqasi, qizi sifatida qaralgan. Qizlarning yerga egalik huquqi tan olingan bo'lib, matriarxal jamiyatlarda sulolaviy meros ona Tomoni orqali belgilanganligi sababli ular jamiyatda yuqori o'rin egallagan. Qadimgi Misrda ikkala jins vakillari ham yer sotish va sotib olish, nikoh qurish va ajrashishda, shartnoma tuzish, meros olish va suddan adolat talab qilishda teng huquqli bo'lishgan. Misr jamiyatidagi ayollarga berilgan mavqe va huquqlari sababli ko'pincha ular taxt vorisi etib belgilangan va davlatni boshqargan. Bunga yaqqol misol - Misr sivilizatsiyasining so'nggi hukmdori bo'lgan Kleopatradir. U miloddan avvalgi taxminan 30-yillarda Misr taxtining qonuniy vorisi sifatida Misrni boshqargan. Bundan tashqari, Misr jamiyatida bir nikohlilik nikohning asosiy yozilmagan qoidasi hisoblangan. Misrning qishloq ayollari uy-ro'zg'or ishlari, bolalar tarbiyasi va boshqa maishiy vazifalar bilan shug'ullanganlar. Shaharda esa ayollar turli muassasa va fabrikalarda ishlaganlar, bozorlarda mahsulot sotganlar, ko'chalarda taom tayyorlab savdo qilganlar va hatto qahvaxonalarni ham boshqarganlar. Shunday qilib shaharlik ayollar o'z faoliyatlari orqali oilaning iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shish orqali o'z turmush o'rtoqlariga yordamlashganlar. [4].

Qadimgi Forsda ayollar

Qadimgi davrlarda ko'plab jamiyatlarda ayollar ko'plab kamsitilishga uchragan bir vaqtda Qadimgi Eronda ayollar yuqori mavqega ega bo'lishgan. Zardushtiylilikning muqaddas kitobi "Avesto"da erkaklar va ayollar teng tilga olingan bo'lib, uning deyarli hech qaysi qismida ayollarga nisbatan kamsitilish alomatlarini uchramaydi. Nikoh masalalarida ham ayollarga bir qator erkinliklar berilgan. Jumladan ular o'z juftini o'z xohishiga ko'ra tanlay olinganligi aytib o'tilgan. Ayollar ko'plab sohalarda erkaklar bilan teng faoliyat yuritgan. Qadimgi Fors davlatida ayollar erkaklar bilan bir qatorda harbiy san'atni ham egallashgan bo'lib, ayrim hollarda ayollar qo'mondonlik qilishgan. Qadimgi Fors adabiyotlarida va Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham mashhur ayollar alohida hurat bilan tilga olinib sharaflangan. Hattoki, Qadimgi Forsda ayollarga bag'ishlangan maxsus bayramlar ham mavjud bo'lgan va bunday bayram kunarida erkaklar ayollarga turli sovg'alar taqdim etib ularni xursand qilishgan, shuningdek ushbu kunda erkaklar ayollarning buyuruqlariga bo'ysingan. Bularndan ko'rinib turibdiki, Qadimgi Fors jamiyatida ayollarga munosabat oliy darajada bo'lgan va ularga nisbatan yuqori hurmat ko'rsatilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qadimgi davr tarixi davomida turli davlatlardagi jamiyatda ayollarga nisbatan munosabat va ularga berilgan huquqlar tubdan farq qilgan. Ayrim davlatlarda ayollar ulug'lanib, yuqori mavqega ega bo'lishgan bo'lsa, boshqalarida ular har tomonlama kamsitilgan va shunchaki uy ishlarini qiluvchi, farzand dunyoga keltiruvchi va uning tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi sifatida ko'rilgan. Ammo davrlar o'tishi bilan barcha jamiyatlarda ayollarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bordi. Bugungi kunda

dunyo mamlakatlari ayollarni kamsitishga qarshi jiddiy qarshi chiqib, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni targ'ib qiluvchi ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishgan. Hattoki ba'zi davlatlarda ayollar uchun begona sanalgan rahbarlik lavozimlarida ham bugun ayollar ulushining ortib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu kabi pozitiv tendensiyalar esa dunyo har qanday sohada ham bir qolibda qotib qolmasdan, tinimsiz rivojlanayotganligini va yaxshi tomonga o'zgarib borayotganligining yaqqol misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Albayrak, E. (2023). "Antik Çağ'dan İtibaren Tarih Boyunca Kadının Toplum İçindeki Yeri", *Journal of Social, Humanities and Administrative Sciences*, 9(68):3395-3407. DOI: http://dx.doi.org/10.29228/JOSH_AS.72303. -P: 3396-3397
2. Murat Kütükçü. (2024). *Analysis of Women's Rights and Law from Ancient History to The Present*. *Journal of Cag History-Culture*, e-ISSN: 3062-0449, <https://dergipark.org.tr/tr/pub/cagtarihkulture>. -P: 36-55
3. Turdiyev B.S. *Siyosiy ta'limotlar tarixi*. Darslik. -T.: "Impress media" nashriyoti, 2023-yil. -B:25-26
4. Khatun, M., & Islam, M. A. (2023). "Ancient Civilizations and Marriage: A Comparative Study of Customs, Traditions, and Rituals in Sumerian, Babylonian, Persian, Egyptian, Greek, Roman, Chinese, European, African and American Cultures", *International Journal of Social Sciences & Humanities*, 8(2):27-53. ISSN: 2545-420X. -P: 33-37.